


Oriental Journal of Philology**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**COGNITIVE LINGUISTICS AND CONCEPTUAL ANALYSIS ISSUES****Zulfiya Marufova***Doctor of Philosophy (PhD) in Philology**Associate Professor of the Department of "Uzbek and World Philology"**Uzbek State Institute of Arts and Culture**Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: cognitive linguistics, concept, conceptual analysis, linguo-cognitive approach, cultural concept, literary text.

Received: 21.09.25**Accepted:** 22.09.25**Published:** 23.09.25

Abstract: The article highlights the formation of cognitive linguistics, its main principles and issues of conceptual analysis. The notion of concept, its linguistic representation, and its role in national-cultural cognition are theoretically examined. Moreover, the specific features of literary text analysis within the framework of the linguo-cognitive approach are demonstrated.

KOGNITIV TILSHUNOSLIK VA KONSEPTUAL TAHLIL MASALALARI**Zulfiya Marufova***Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti**"O'zbek va jahon filologiyasi" kafedrasida dotsenti,**Toshkent, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so'zlar: kognitiv tilshunoslik, konsept, konseptual tahlil, lingvokognitiv yondashuv, madaniy konsept, badiiy matn.

Annotatsiya: Maqolada kognitiv tilshunoslikning shakllanishi, uning asosiy tamoyillari va konseptual tahlil masalalari yoritiladi. Konsept tushunchasi, uning tildagi ifodalanishi hamda milliy-madaniy tafakkurdagi o'rni haqida nazariy mulohazalar bildiriladi. Shuningdek, lingvokognitiv yondashuv asosida badiiy matn tahlilining o'ziga xos jihatlari ko'rsatib beriladi.

КОГНИТИВНАЯ ЛИНГВИСТИКА И ПРОБЛЕМЫ КОНЦЕПТУАЛЬНОГО АНАЛИЗА**Зульфия Маруфова***Доцент кафедры «Узбекской и мировой филологии»**доктор философии (PhD) по филологии**Узбекского государственного института искусств и*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: когнитивная лингвистика, концепт, концептуальный анализ, лингвокогнитивный подход, культурный концепт, художественный текст.

Аннотация: В статье рассматривается становление когнитивной лингвистики, её основные принципы и вопросы концептуального анализа. Излагаются теоретические положения о понятии концепта, его языковом выражении и роли в национально-культурном мышлении. Также раскрываются особенности анализа художественного текста на основе лингвокогнитивного подхода.

Kirish. Antropolingvistikada til inson – olam – til modeli asosida tadqiq etiladi. Buning natijasida paydo bo‘lgan antropotsentrik nazariya ostida antropolingvistika yo‘nalishi va lingvopoetika hamda lingvopragmatika shakllandi. Ko‘rinib turibdiki, antropotsentrik nazariyaning shakllanishi tilshunoslik yo‘nalishini inson va uning madaniyatdagi o‘rniga tomon o‘zgartirdi. Bunda madaniyat va madaniy an‘analarning diqqat markazida inson – til egasi turishi aniqlandi. Inson olamni idrok qilishda tamomila tilning “asiri”da bo‘ladi. Ma’lumki, til yordamida olam tavsiflanadi va tasniflanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Jahon tilshunosligida tilni inson shaxsi bilan aloqadorlikda o‘rganish kognitiv tilshunoslik, lingvistik semantika, psixolingvistika, pragmalingvistika, lingvokulturologiyaga oid ilmiy izlanishlarda o‘z aksini topdi. V.fon Gumboldt, L.Vaysgerber, E.Sepir, V.L.Uorf, A.Potebnya, J.Lakoff, V.Jonson, T.A.Van Deyk, N.Xomskiy, E.Rosh, A.A.Leontev, Yu.N.Stepanov, L.N.Shcherba, N.I.Jinkin, Ye.S.Kubryakova, L.A.Maslova, F.K.Sedov, N.I.Karaulov, V.Z.Demyankov singari tilshunos olimlar tadqiqotlarida til tizimining shaxs omili bilan bog‘liq ekanligi e’tirof etildi.

Kognitiv lingvistika – tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishi bo‘lib, tafakkur va til o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar, dunyoni konseptuallashtirish va kategorizatsiyalashtirishda, insonning bilish faoliyatida va tajribasini umumlashtirishda, insonning alohida kognitiv qobiliyatlarining tilga bog‘liqligi va o‘zaro va aloqadorligi shakllarini o‘rganishda tilning roli haqidagi masalalarda bahs yuritadi. Mazku fan doirasi shu paytgacha til tizimini va nutqiy faoliyat mahsuli bo‘lgan matn qurilishini filologik nuqtai nazardan tahlil qilib kelayotgan bo‘lsa, endilikda idrok etish, bilish, tushunish, tahlil qilish faoliyatlariga oid tushuncha va kategoriyalar bilan kengaydi. Buning natijasida, tilshunoslikning mantiq, psixologiya, bilish nazariyasi kabi kognitiv fan sohalari bilan hamkorligi tabiiy ravishda kuchaydi. Bu hamkorlik, bir tomondan, tilshunoslikni inson tafakkur faoliyati muammolari bilan shug‘ullanuvchi kognitologiya fani tarmog‘iga kiritgan bo‘lsa,

ikkinchidan, tilshunoslikning o'zini yana bir soha – kognitiv lingvistika sohasi bilan boyitdi [9, 120-b.].

“Kategorizatsiya deganda to'plangan bilimlarning tartibga solinishi, ya'ni yangi bilimning inson ongida mavjud bo'lgan u yoki bu bo'lim doirasida taqsimlanishi tushuniladi. Konseptualizatsiya – real yoki xayolot dunyosidagi biror bir hodisaning kognitiv belgilari to'plamini aniqlash jarayoni bo'lib, bu belgilar insonga shu hodisa haqida tushunchaga va tasavvurga ega bo'lish, uni ongda saqlash, yangi ma'lumotlar bilan to'ldirish va bu hodisani boshqa fenomenlardan farqlash imkonini beradi” [2, 20-25 b.]. Umuman olganda, kognitivizm tafakkur jarayonlari bilan boshqariladigan umumiy tamoyillar tadqiqi asosida birlashuvchi fanlarning yig'indisi, deyish mumkin. Shunday ekan, til fikrlash jarayoniga olib boruvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. Inson tajribasi, tafakkuri aynan tilda ifoda topadi, til-bilish mexanizmi, ma'lumotni spesifik kodlovchi va o'zgartiruvchi belgilar tizimidir. Kognitiv lingvistika ob'ekti sifatida til bilish mexanizmi hisoblanadi.

Kognitiv tilshunoslikda (inglizcha cognize – bilmoq, anglamoq, tushunmoq) til tafakkur bilan bog'liq holda o'rganiladi, uning hosil bo'lishidagi psixologik, biologik va neyrofiziologik jihatlarning ijtimoiy, madaniy, lisoniy hodisalar bilan uzviy aloqasi chuqur ilmiy tadqiq etiladi. Bunda til umumiy kognitiv mexanizm sifatida o'rganiladi. V.Z.Demyankovning fikricha, unda til strukturalarining axborotni qayta ishlashdagi roli nutq yaratilishi va idrok qilinishi nuqtayi nazaridan o'rganiladi. Bunda nutq yaratuvchi va uni idrok etuvchi sub'ektlar – so'zlovchi va tinglovchiga axborotni qayta ishlovchi sifatida qaraladi. Uning ta'kidlashicha, “...tilshunoslik maydonida start olgan tadqiqotchi finishda “qo'shma fanlar” manziliga etib keladi” [1, 17-b.]. Ya'ni kognitiv tilshunoslik bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan shaxsdan ushbu sohaning yuzaga kelishiga asos bo'lgan psixologiya, nevrologiya, gneseologiya, sotsiologiya, sun'iy intellekt kabi fanlar alifbosidan ham xabardor bo'lish talab etiladi [10].

Natijalar. Bu yo'nalish tildagi birliklarni nafaqat kommunikativ vosita, balki inson ongidagi bilim va tushunchalarni tashkil etuvchi tizim sifatida ko'rib chiqadi. Shu jihatdan, til – bu nafaqat aloqa vositasi, balki tafakkur shakli, bilimlar jang'armasi hamdir.

Zamonaviy tilshunoslikda “konsept” termini dunyo haqidagi bilimlarni “umumlashtirib” namoyon etish shakllaridan biri sifatida ishlatiladi. Ammo “konsept” nimani anglatadi, degan savolga haligacha olimlarning javoblari turlicha. Chunki “konsept” tushunchasining o'ta mavhum hodisadir. “Konsept” atamasini fanga dastlab o'rta asrlar konseptualizmi davridagi U.Gobbs, P.Abelyar, U.Okkam kabi faylasuflar olib kirgan. Ularning fikricha, konsept narsalarning belgilarini umumlashtiruvchi va ongda ichki foydalanish uchun gavdalantirilgan, o'zida eng muhim va dolzarb axborotlarni jamlagan universal omillardir yig'indisi. Tilshunoslikda esa “konsept” termini ilk marta S.N.Askoldovning 1928-yilda yozilgan “Konsept va so'z”

maqolasida ishlatilgan [8, 60-b.]. Shu kunga qadar konsept haqida turlicha fikrlar, ta'riflar va ularni o'rganishga doir turli yondashuvlar mavjud.

Z.D.Popova, I.A.Sternin "konsept keng qamrovli mental birlik, u tuzilma ko'rinishidagi bilimning alohida bo'lagi, kvantidir", degan fikrni ilgari suradilar [5]. Y.S.Kubryakova esa konseptga ong va ruhiy imkoniyatlarimiz hamda inson bilimi, tajribasini aks ettiruvchi tafakkur birligi sifatida ta'rif beradi [3]. V.A.Maslovaning fikricha, konsept lingvokulturologik o'ziga xoslik bilan belgilangan va muayyan etnomadaniyat sohiblarini u yoki bu tarzda tavsiflovchi semantik tuzilma [4]. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, konsept insonning olamni idrok etishda faol harakatlanuvchi, uning ongida mental tarzda namoyon bo'ladigan, til egalarining dunyoqarashi, milliy-etnik xususiyatlarini o'zida aks ettiruvchi birlikdir. Shuningdek, konseptning milliy-madaniy jihati ham tilshunoslarning e'tiboridan chetda qolmadi. Konseptning barqarorligi va to'liqligi, mukammalligi va izchilligi tushunchaning sifatini belgilaydi.

O'zbek tilshunosligida ham konsept haqida muhim qarashlar yuzaga kela boshladi. Bu borada Sh.Safarov, A.Nurmonov, O'.Yusupov, A.Abuduazizov, A.Mamatov, D.Ashurova, M.Djusupov, M.Galieva, D.Agzamova, D.Xudayberganova, N.To'xtaxo'jaeva, B.Mengliev, Z.Xolmonova kabi olimlarning fikr-mulohazalari xarakterlidir. Sh.Safarovning fikricha, "...konseptning zamiridagi "mental struktura" hech qanday moddiy ko'rinishga ega bo'lmay, balki aqliy idrok jarayonida hosil bo'ladigan, tasavvurdagi tuzilma ekanligini unutmaslik lozim. Boz ustiga, "konsept" atamasi "tushuncha", "ma'no", "mazmun" kabi boshqa mental hodisalar bilan yonma-yon turadiki, ayni paytda ularning o'zaro munosabatini aniqlash, farqli belgilarini ajratish muammosi ham paydo bo'ladi". A.Nurmonov tushuncha bilan konseptni bitta narsa deb ataydi: "Tushunchalar so'zlar orqali ifodalanadi. Shuning uchun so'z ifodalovchi va ifodalanmish birligidan tashkil topgan belgi sanaladi va bu belgining ifodalanmish tomoni tushuncha yoki konsept sanaladi. So'z ob'ektiv olam uzvlari bilan, ya'ni denotat bilan konsept orqali bog'lanadi". Sh.Safarov ta'rificha, konseptning tarkibida ongning timsol, tushuncha, hissiyotga oid tuzilmalari birlashadi, bu tuzilmalar inson dunyoqarashini aks ettiradigan voqelik tasviri – tasavvurining asosini tashkil qiladi. D.U.Ashurova "konsept" deb barcha tushunchalarni atash noto'g'ri, balki dunyo va milliy madaniyat muhitida muhim rol o'ynaydigan tushunchalargina konsept bo'la oladi", degan fikrni bildiradi. D.Xudayberganova ham konseptning ko'p qirrali va ko'p qatlamli mental tuzilma ekanligini ta'riflar ekan, konsept "bir vaqtning o'zida psixologik, kognitiv-semantik va lingvokulturologik jihatlarni namoyon etishini, chunki konseptning kognitiv va lingvokulturologik tadqiqotlar ob'ekti sifatida tavsiflanayotgani ham shundan dalolat berib turganligini" ta'kidlaydi.

Xulosa. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, konsept insonning olamni idrok etishida faol harakatlanuvchi, uning ongida mental tarzda namoyon bo'ladigan, til egalarining

dunyoqarashi, milliy-etnik xususiyatlarini o'zida aks ettiruvchi birlikdir. Shuningdek, konseptning milliy-madaniy jihati ham tilshunoslar e'tiboridan chetda qolmadi. Konseptning barqarorligi va to'liqligi, mukammalligi va izchilligi tushunchaning sifatini belgilaydi. O'z navbatida, konseptlar so'z ma'nolariga nisbatan keng talqin etiladigan, murakkab tipologik qurilmaga ega. N.Mahmudov "ular haqida tilshunoslikda juda ko'p yozilgan bo'lishiga qaramasdan, hali-hamon ularning ayrimlari, masalan: "lisoniy shaxs", "konsept" terminlari talqinida bir xillikka erishilgan emas", deb yozadi. Bilimlar sistema xarakteriga ega bo'lmas ekan, u tasavvurligicha qoladi. Barqaror (sistema)lashgan bilimlarga konsept tabiatiga ega bo'ladi, deb ta'kidlaydi B.Mengliyev. Darhaqiqat, bilimlar konsept darajasiga etishi uchun til egasining idrokida barqaror butunlikka aylangan, milliy konseptosferada o'z o'rnini topgan bo'lishi zarur.

Konseptual tahlil til birliklarining faqat shakli emas, balki mazmuniy va madaniy jihatlarini o'rganadi. Bunda quyidagi masalalarga e'tibor qaratiladi:

Konseptlarning tildagi ifodalanish usullari (so'z, frazeologizm, metafora).

Konseptlarning milliy-madaniy xususiyatlari.

Konseptlarning lingvopoetik ifodasi badiiy matnda.

Konseptlarning qiyosiy tahlili – turli xalqlardagi estetik va madaniy qadriyatlarining solishtirilishi.

Kognitiv tilshunoslik konseptlarni til va tafakkur bog'liqligida o'rganish imkonini beradi. Konseptual tahlil esa nafaqat lingvistik, balki madaniy va estetik ma'nolarni ochishga xizmat qiladi. Shunday qilib, badiiy matnlarda konseptlarni o'rganish xalq tafakkuri, dunyoqarashi va estetik qadriyatlarini chuqurroq anglashga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Гумбольдт, В. фон. Избранные труды по языкознанию. – Москва: Прогресс, 1984. – 400 с.
2. Демьянков, В.З. Когнитивная лингвистика как разновидность интерпретирующего подхода // Вопросы языкознания. – Москва, 1994. – №4. – С. 17–33.
3. Дзюба, Е.В. О видах и структуре категорий // Вестник Нижегородского государственного лингвистического университета им. Н.А. Добролюбова. – 2012. – Вып. 19. – С. 20–25.
4. Кубрякова, Е.С. Язык и знание: На пути получения знаний о языке: части речи с когнитивной точки зрения, роль языка в познании мира. – Москва: Языки славянской культуры, 2004. – 560 с.
5. Маслова, В.А. Введение в когнитивную лингвистику: Учебное пособие. – Москва: Академия, 2004. – 296 с.
6. Потебня, А.А. Мысль и язык. – Москва: Лабиринт, 1999. – 300 с.

7. Попова, З.Д., Стернин, И.А. Понятие «концепт» в лингвистических исследованиях. – Воронеж: ВГУ, 2000. – 50 с.
8. Бахронова, Д. Оламнинг лисоний манзараси тасвирида концепт ва концептосфера // Хорижий филология. – 2019. – №3. – Б. 60–65.
9. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – Б. 41-54.
10. Mengliyev B. “Konsept-tushuncha-so‘z” zanjiri haqida. baxtiyormengliyev@mail.ru
11. Nurmonov A. Empirik va ratsional bilish. Tanlangan asarlar. 1-jild. – Toshkent, 2012. – B.21.
12. Safarov Sh. Semantika. – Toshkent: O‘zME, 2013. – B.275.
13. Qarang: Baxronova D. Olamning lisoniy manzarasi tasvirida konsept va konseptosfera // Xorijiy filologiya, 2019. – №3. – B.64.
14. Xudoyberganova D. Matnning antropotsentrik tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2013. – B.13.
15. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab... // O‘zbek tili va adabiyoti, 2012. – № 5. – B.3-16.